

ZAMONAVIY MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI

Narzullayev Sarvar Zokirovich

(Toshkent, O'zbekiston)

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy mehnat bozorida yoshlar bandligi tobora dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada yoshlarning ish bilan ta'minlanishidagi muammolar, ularning asosiy sabablari va bu muammolarni hal qilish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning bandligi bilan bog'liq global tendensiyalar, mamlakatimizdagi vaziyat va muvaffaqiyatli tajribalar ko'rib chiqiladi. Maqolada yoshlar orasida ish o'rinlarini yaratish, ta'lim tizimini mehnat bozorining talablariga moslashtirish hamda yoshlarga doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Natijada, yoshlar bandligini yaxshilash yo'llari va istiqbollari haqida xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori,

Davlatimiz rahbari har bir chiqishida, aholi bilan muloqotda yoshlar masalasiga alohida etibor qaratadi. Ularni mamlakatimiz buguni va kelajagida tutgan muhim orniga urg'u beradi. Binobarin, yurtimizda navqiron avlod vakillarining zamonaviy kasblarni egallashlari, "nou-xau"lar bilan hamnafas qadam tashlashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Navqiron avlod va ma'sullari o'rtasida to'g'ridan-tog'ri muloqot o'rnatishga xizmat qiluvchi "Yoshlar murojaati" elektron platformasini yaratish ustida ishlar olib borilyapti. U o'g'il-qizlarning kasb-hunarli bolishlarini, ya'ni hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun yaqin komakchi boladi. Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan keng islohotlar, jumladan, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Birlashgan Arab Amirliklarining "Dubai Future Foundation" fondi tomonidan Investitsiyalar va tashqi

savdo vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirib kelinayotgan “Bir million dasturchi” loyihasi ham yoshlar uchun keng imkoniyatlarni yaratdi. Bilamizki, 21 asr – axborot va texnologiyalar asri hisoblanadi. Shu jumladan, AT bugungi kunda jadal suratlar bilan o‘tib bormoqda, dunyo miqiyosini olib qaraydigan bo‘lsak insoniyat hayotiga dahildor va insoniyat kashfiyotlari birmuncha ilgari ketdi. Yangi O‘zbekistonda bu sohada ozining aniq va maqsadli qadamlarini jadal tashlamoqda, bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning rivojlanayotgan davlatlar qatorida bormoqda. AT sohasi ham zamon bilan hamnafasravishda o‘z yetuk kadrlarini tayyorlamoqda. Yoshlarning hayotidagi ajralmas qismi, desak ham bolmaydi. Yoshlar uchun yangi islohotlar qancha vaqt o‘tsa ham eskirmaydigan yangi kashfiyot hamda yangi marralar demakdir. “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi ham o‘zining atrofiga AT sohasiga qiziquvchi yoshlarni birlashtira oldi, deb aniq ayta olamiz. Bu loyiha mahalliy dasturchilarni yaratishda mustahkam poydevor bo‘la olganini e’tirof etish zarur. O‘zbekiston iqtisodiyotida yosh tadbirkorlar ulushi kundan kunga oshib bormoqda. 2018 yil 27 iyun sanasi yurtimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochilgankun sifatida tarixga muhrlandi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi tasdiqlandi”¹¹. Mazkur hujjatning muhimligishundaki, u joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek yoshlar bandligini taminlashga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan edi. Hozirda Respublikamizning barcha tuman-shaharlarida Jamg‘arma filiallari tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan yoshlarga to‘g‘ri yonalish berib, bankdan kredit olishga ko‘maklashib, har jabhada qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. “Yoshlar- kelajagimiz” Davlat dasturining yana bir muhim jihati, yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qoyish bilan birga ularni ish bilan taminlashga ham ko‘maklashayotganligidir. 2019 yilning 26 avgust holatiga ko‘ra, yoshlarning 1735ta biznes loyihalariga jami 380,0 mlrd. so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi. Bundan tashqari, chekka chekka hududlarda 8 ta “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazi,

hamda 49 ta “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari qurilib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Davlat dasturi doirasida yoshlarning umumiy qiymati 9,1 mlrd. som 11 ta loyihasiga Jamg‘arma kafilligi taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlariga ko‘maklashildi. Yoshlarning nafaqat loyihalarini moliyalashtirish, balki ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozorini topishga ko‘maklashish Jamg‘armaning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘tgan davr mobaynida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida xorijiy davlatlar bilan manfaatli kelishuvlarga erishildi. Jumladan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi o‘rtasida yoshlar masalalari bo‘yicha o‘zaro samarali hamkorlik munosabatlari o‘rnatildi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida “O‘zbekiston-Rossiya yoshlar biznes forumi” o‘tkazildi. “Hamkorlikning ustuvor vazifalari sifatida ikki mamlakatning yosh o‘zaro tajriba almashishi bilan birga, qo‘shma biznes loyihalarini amalga oshirish, yangi korxonalar tashkil etish, axborot texnologiyalari, raqamli tijorat kabi sohalar bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish belgilanib, hamkorlik natijasida ikki mamlakatning yosh ishbiarmonlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish va hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishga ko‘maklashishga qaratilgan “Yoshlar biznes inkubatori” tashkil etildi”¹². Tadbirlar doirasida ikki mamlakat yosh tadbirkorlari uchun mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, qo‘shma tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun yaratilgan imkoniyatlar to‘g‘risida soha mutaxassislari tomonidan mahorat darslari hamda mamlakatimizda yirik ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati bilan tanishtirishga qaratilgan biznes sayohatlar, sohada hamkorlik masalasiga oid uchrashuvlar tashkil etildi. Bundan tashqari imtiyozli kredit olib o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan yosh tadbirkorlar tomonidan 2019 yilda jami 500 ming AQSH dollaridan ziyod miqdorda eksport qilishlariga ko‘maklashildi. Tengdoshlarini ish bilan ta‘minlayotgan, uzoqni ko‘ra oladigan ishbiarmon tadbirkorlar turli sohalarda xalqimizning farovon turmush kechirishi, Vatanimizning tarrafiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shayotgan har jabhada sezilib turibdi. Bugun ular tadbirkorlar jamoasini shakllantirgan holda jahon bozorlarida, biznes maydonlarida g‘oliblik uchun raqobatlashayotgan yirik kuchga aylangan.

“Yoshlar-kelajagimiz” jamg‘armasi esa ularning eng yaxshi g‘oyalarini, biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror <https://lex.uz/docs/5030957?otherlang=1>
2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида <https://lex.uz/docs/4751567?otherlang=3>
3. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020- yil 24- iyul’.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020- yil 23- sentyabr’.
5. <https://www.stat.uz/uz/> sayti